

TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH SIFATINI OSHIRISHNING TAMOYILLARI

*S. Ibragimova*¹

Annotatsiya:

Ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va bir xilligini CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari asosida ta'minlashga erishishning pedagogik mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ta'lim jarayonida xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish muammolari bilan YUNESKO, YUNISEF, Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi, Oliy ta'lim sifatini ta'minlash Yevropa tarmog'i xalqaro tashkilotlari amaliy ingliz tilini, xalqaro muloqot tili sifatida ingliz tilini kasbiy talablar darajasida o'rganishda auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni amaliy ko'nikmalariga ustuvorlik bergan holda tashkil etishga qaratilgan yirik loyihalarni joriy etish buyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tizimga bajariladigan ishlar hamda bu xususda muallifning tavsiya va fikrlari ilmiy asoslab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, CEFR (Common European Framework of Reference for Language), oliy ta'lim, ta'lim muassasalarida.

doi: <https://doi.org/10.2024/1k95ad88>

Jahonda umumevropa CEFR talablari asosida amaliy ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirish, kredit-modul tizimidawo'qitishning mazmuni vawta'lim texnologiyalariniwtakomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentliginiwo'zaro hamkorlikwasosida rivojlantirish, amaliywingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirish darajasini diagnostikawqilish bo'yicha ilmiywtadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak mutaxassislarniwamaliy ingliz tiliniwo'qitishda kompetensiyaviy yondashuvniwjoriy etish, talabalarningwxorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda kredit-modul tizimining pedagogik va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, ingliz tiliniwo'qitish sifatiniwboshqarish tiziminiwtakomillashtirish, innovatsion ta'lim usullariniwkeng joriy etish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, lingvistik tayyorgarlikni oshirish bo'yicha ilmiywtadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'lim tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga mos modernizasiyalash, ta'limning kredit-modulli tizimiga o'tish, muqarrar ravishda til ta'limi mazmunini qayta ko'rib chiqish, ushbuwo'quv tizim ishlashining o'zigawxos xususiyatlaridan kelib chiqqan holdawnutq faoliyati turlarini rivojlantirish, sohangawzamonaviy pedagogik vawaxborot kommunikasiya texnologiyalari hamdawinnovatsion ta'lim usullarini keng joriy etish, talabalarning amaliy ingliz tilidan ko'nikmalarini auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda xalqaro malaka talablari asosida rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda metodik va moddiy texnik bazasi yaratilmoqda. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim

¹ *Ibragimova Sevara Baxodirovna, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi*

muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish”¹ ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu borada oliy ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, kommunikativ kompetentligi darajasini CEFR malaka talablari darajasiga ko’tarish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda professor-o’qituvchiga qo’yiladigan muhim talablardan biri ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo’llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatishdan iborat. Uzluksiz ta’lim tizimining hamma bo’g’inlarida ham professor-o’qituvchi dars jarayonida noan’anaviy darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, lekin oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni talabalarga o’rgatishda xorijiy til o’qituvchisi o’quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o’rganib darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogik texnologiyalarni darsda qo’llash maqsadga muvofiqdir. Professor-o’qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- talabalar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalarni hosil qilish;
- yangi mavzuga oid qoida, atamalar mohiyatini ochib berish;
- yangi mavzuni o’tilgan mavzular bilan izchillikda yetkazish;
- talabalarning fikrlash darajasini rivojlantirib borish;
- ta’limiy o’yinlarning izchilligi, xilma-xilligi va qiziqarli bo’lishiga erishish;
- shu mashg’ulotning o’zida yangi bilim asosida shakllangan ko’nikmalarini tekshirib borish;
- talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- dars jarayonida talabalar ishtirokini kuchaytirib borish.

Demak, shuni ta’kidlash kerakki, kelajagamiz bo’lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo’lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish zarur. Jumladan, xorijiy tillarni o’rganish darajalari mazkur maqsadni amalga oshirishda talabalarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o’rganib, o’zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashda to’siq bo’ladigan salbiy psixologik holatlarni aniqlash va bartaraf etishda qo’llanilishi lozim. Demak, ta’lim muassasalarida ta’lim oladigan talabalarning o’ziga xos bir qator muammolari mavjud. Professor- o’qituvchi ham pedagog, ham psixolog bo’lib qolmasdan, ular bilan ishlash texnikasini ham bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni.
- [2]. Kenjaboyev A. *Pedagogik texnologiyalar – dars samaradorligining muhim omili*. – T.: «Navro‘z», 2012.
- [3]. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari*. – T.: «Fan», 2006.
- [4]. Feberman B. *Ilg‘or pedagogik texnologiyalar*. – T.: «Fan», 2000.
- [5]. Nurjahon N. *Epitetning badiiy matnda faollashuv o‘rni //prospects of development of science and education*. – 2023. – T. 1. – №. 12. – C. 7-9.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni.